Ta'lim muassasalaridagi ba'zi jihatlar	1167
A'zam Qutbiddin A'zam-zoda	
Klasterlar hisob siyosatida boshqaruv hisobining metodologik asoslari.....	1173
Toshpo'latov Azizbek Shermuxamadovich	
Egri soliqlarning mohiyati, genezisi va rivojlanish tendensiyalariga oid nazariy munozaralar xususida	1179
Shodiyev Olimjon Abduraxmonovich	
Ekologik mehmonhona faoliyatini rejalashtirish maqsadlari va vazifalari	1186
Abidova Dilfuza Igamberdievna	
Investitsiya loyihalarining iqtisodiy va moliyaviy samaradorligini oshirish istiqbollari.....	1200
Jo'rabekova Xumora Muzaffar qizi, Saidov Rasul Boltabayevich	
O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlarini moliyalashtirish manbalarining tahlili.....	1204
Aliyev Arslon Salom o'g'li	
O'zbekistonda turizm sohasining iqtisodiy ko'rsatkichlarini statistik tahlil qilish.....	1213
Jumanova Zilola Tuychiyevna	
Xorijiy davlatlarda boylik solig'i va uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.....	1219
Ruziyev G'anisher Usarovich	
Yer fondi va undan samarali foydalanishning nazariy asoslari (Samarqand viloyati misolida).....	1225
Xoshimova Sevara Bahromovna	
Iqtisodiy-ekologik tizimlarni boshqarishga ta'sir etuvchi omillarning ilmiy asoslari	1229
Kuldoshev Asliddin Tursunovich	
Влияние финтех-услуг на финансовую инклюзию в сельских регионах узбекистана.....	1236
Абдурахимова Дилора Каримовна	
Surxondaryo viloyati sanoat sohasining asosiy ko'rsatkichlari tahlili.....	1240
Kuvanchiyeva Mehriniso Davlyatgeldi qizi	
A critical evaluation of strategic management's role in promoting sustainable development in Uzbekistan	1245
Ismatova Mahliyo	



O'zbekistonda turizm xizmatlari eksportini oshirishda zamonaviy infratuzilma va texnologiyalarning integratsiyasi.....	1251
Akmal Bakhromov	
Trends and reforms of corporate governance in state-owned enterprises.....	1257
F.Djalilov	
Переоценка долгосрочных активов в нефтегазовой промышленности и определение финансового результата от переоценки.....	1269
Махкамова Саида Гайратова	
Oziq-ovqat mahsulotlari korxonalarini integratsiyalashuv jarayonlarini boshqarish samaradorligini oshirish.....	1275
Xojiev Ibroxim Ikramovich	
Sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini ta'minlashning muhim shartlari.....	1280
Allanazarova B.K.	
P2P lending and crowdfunding as alternative sources of financing for small business in Uzbekistan.....	1286
Abdurakhimova Dilara Karimovna	
O'zbekistonda soliq nazoratining huquqiy va tashkiliy asoslarini takomillashtirish yo'llari.....	1290
Kuziyeva Nargiza Ramazanovna, Oymatova Gulnur Mirjamolovna	
Applications of hyperbolic geometry in physics and biology.....	1295
Khaknazarova Khurshidabonu Kenjaevna, Otakulova Rukhshona Akram kizi	
O'zbekiston temir yo'llari tizimining transformatsiyasi: modernizatsiya, raqamlashtirish va qayta tuzilish yo'nalishlari.....	1301
Nasrullayev Nurbek Baxtiyarovich	
The role of tourist product diversification in sustainable tourism development.....	1305
Raxmonov Shuxrat Shavkatovich, Alimova Mashhura Toirxonovna	
Temiryo'l transporti turi tavsifi.....	1310
Shodmonbekova Nodira Kamoljon qizi	
Namangan viloyatining turizm salohiyatini rivojlantirish istiqbollari: Hududiy raqobatbardoshlik va innovatsion yondashuvlar.....	1314
Khusniddin Egamnazarov	
Kiberxavfsizlik: it infratuzilmasini himoya qilishning zamonaviy usullari.....	1321
D. Sh. Usmanbayev	
Mahalliy budjetlar daromad bazasini tahlili.....	1325
Qurbonov Nuriddin Ro'ziqulovich	
Развитие цифровых финансовых услуги в банковской системе Республики Узбекистан.....	1333
Абдурахманова Матлуба Махамадаминовна	
Avariya rejimlarida kichik yuklamali elektr ta'minoti tizimlarining kabel izolyatsiyasi monitoringini avtomatlashtirishning zamonaviy yondashuvlari.....	1339
Mirzoyev Narzulla Nuriddinovich, Mamatqulov Toyir Chorshanbiyevich	
Analysis of increasing the speed of information exchange between the control interface and execution mechanisms in emergency mode in intelligent systems.....	1346
Azizbek Yusupbekov Nodirbekovich, Husniddin Esonov Mamarasul o'g'lu Assistant	
Sa'noat korxonalari va mexatron robotlarni optimal avtomatlashtirish va boshqarishda sun'iy intellektning ahamiyati.....	1351
Karabayev Ibragim Turdiyevich, Esonov Husniddin Mamarasul o'g'li, Abdullayeva Saodat Mengbayevna, Mamatqulov Toir Chorshanbiyevich	
Korxonaning moliyaviy holatini baholashda zamonaviy tahlil uslublarining qo'llanilishi.....	1355
Usmanova Nasiba Akbarjonovna, Suleymanova Asel Armanovna	
Xizmat ko'satish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalarning ahamiyati.....	1360
Mirzayeva Shirin Nodirovna	
Rekreatsiya turizmi va sog'lomlashtirish xizmatlari integratsiyasi.....	1365
Shaymanova Nigora Yusupovna	
Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirishda ba'zi iqtisodiy yondashuvlarning nazariy jihatlari.....	1369
Iskandarova D.B.	
Yashil (eko) investitsiyalarni tijorat banklari orqali moliyalashtirish.....	1373
Kamilova Iroda Xusniddinovna	



Improvement of inventory accounting audit based on international standards	1378
Ovlayev Suhrob Temur o'g'li, Yo'lchiyev Oybek Ulug'bek o'g'li, Normo'minova Dilorom Umar qizi, Avlayeva Oybachin Olim qizi	
Artificial intelligence systems for assessing creditworthiness	1382
Mardonova Durdonax Yaxshiboy qizi	
B2B bozorini rivojlantirishda raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish	1387
Samadov Askarjon Nishonovich	
Tech-driven growth and the economy of the future: brics-t in the society 5.0 paradigm	1395
Kaldibayev Nurlan Alimjanovich, Sagdullayeva Gulnora Botirovna, Durmanov, Akmal Shaimardanovich	
O'zbekistonda tabiiy resuslardan olinadigan rentaning yaimdagi ulushiga tanlab olingan o'zgaruvchilar ta'siri tahlili	1404
Tursunov Husnidin, Ibragimov Hasan	



Аннотация: Целью данного исследования является анализ факторов, влияющих на долю совокупной природной ренты в ВВП Узбекистана. В исследовании рассматривается влияние трех основных независимых переменных – ВВП на душу населения (в постоянных долларах США 2015 года), выработка электроэнергии из возобновляемых источников, кроме гидроэнергетики (кВт·ч), и эффективность правительства (в процентах) – на использование природных ресурсов. Эконометрический анализ временных рядов, основанный на данных Всемирного банка, определяет роль экономического развития, производства чистой энергии и качества управления в рациональном использовании ресурсов. Результаты исследования дают практические рекомендации по обеспечению устойчивости и разработке эффективной политики в ресурсозависимой экономике Узбекистана.

Ключевые слова: Природные ресурсы, индекс эффективности правительства, выработка электроэнергии, возобновляемые ресурсы, ВВП на душу населения.

KIRISH

Tabiiy resurslar har qanday mamlakat iqtisodiy rivojlanishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Neft, gaz, ko'mir, foydali qazilmalar, shuningdek, yer, suv va boshqa tabiiy boyliklar asosan eksport daromadlarini shakllantirish, sanoat tarmoqlarini rivojlantirish hamda infratuzilmani modernizatsiya qilishda katta ahamiyatga ega. Biroq, tabiiy resurslarga boy mamlakatlarning iqtisodiy o'sishi har doim ham uzoq muddatli barqaror rivojlanish bilan bog'liq bo'lavermaydi. Ilmiy adabiyotlarda bu holat "resurs la'nati" (resource curse) yoki "Hollandiya kasalligi" (Dutch disease) atamali bilan tavsiflanadi. Mazkur holat shuni anglatadiki, tabiiy resurslarga haddan ziyod tayanish ishlab chiqarish diversifikatsiyasi, texnologik rivojlanish va institutsional samaradorlik kabi jihatlarning sustlashuviga olib kelishi mumkin.

O'zbekiston ham tabiiy resurslarga boy davlatlar qatoriga kiradi. Mamlakat hududida turli xil foydali qazilmalar, energiya resurslari va qazilma boyliklar mavjud bo'lib, ular iqtisodiyotning turli tarmoqlarida faol foydalaniladi. Ayni vaqtda, resurslardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini oshirish, ularni qayta ishlash darajasini ko'tarish, va eng asosiysi, tabiiy resurslar hisobidan olinadigan rentani ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka yo'naltirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Shu sababli, tabiiy resurslarning iqtisodiyotdagi o'rni va ular asosidagi daromadlar oqimini tahlil qilish, ularning harakatlantiruvchi omillarini aniqlash bugungi kunning dolzarb ilmiy-ijtimoiy masalalaridan biridir.

Mazkur tadqiqotda tabiiy resurslardan olinadigan umumiy renta ulushi (YaIMga nisbatan foizda) bog'liq o'zgaruvchi sifatida tanlangan. Tadqiqot ushbu ko'rsatkichga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan bir nechta muhim omillarni tahlil qiladi. Jumladan, aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot (doimiy 2015 AQSH dollarida) iqtisodiy rivojlanish darajasini ifodalaydi va resurslardan foydalanish samaradorligi bilan uzviy bog'liqdir. Qayta tiklanadigan manbalardan elektr energiyasi ishlab chiqarish (gidroenergetikadan tashqari) ko'rsatkichi esa iqtisodiyotda ekologik barqarorlik va diversifikatsiyaga intilish darajasini ko'rsatadi. Hukumat samaradorligi indikatorining tadqiqotga kiritilishi esa resurslar ustidan nazorat, boshqaruv sifati va institutsional taraqqiyotning resurs rentasiga ta'sirini o'rganishga xizmat qiladi.

Tadqiqotda Jahon bankining ochiq ma'lumotlar bazasi asosida 2000–2022 yillar oralig'idagi statistik ko'rsatkichlar tahlil qilinadi. Ekonometrik model orqali mustaqil o'zgaruvchilarning tabiiy resurs rentasiga ta'siri empirik baholanadi. Ushbu tadqiqotdan olinadigan natijalar O'zbekistonning tabiiy resurslarga asoslangan iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish, toza energiyadan foydalanishni kengaytirish va institutsional islohotlarni jadallashtirish bo'yicha siyosiy qarorlar ishlab chiqishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qilishi kutilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tabiiy resurslardan foydalanish va ularning iqtisodiy o'sish jarayonidagi o'rni ko'plab tadqiqotchilar tomonidan turli nazariy va empirik yondashuvlar orqali o'rganilgan. Tabiiy resurslar iqtisodiyotga salmoqli daromad keltirishi mumkin bo'lsa-da, bu resurslarga haddan ortiq tayanish uzoq muddatli barqaror rivojlanishga to'sqinlik qilishi mumkinligi "resurs la'nati" [1] deb ataluvchi konsepsiyada keng yoritilgan. Ushbu nazariyaga ko'ra, resurslarga boy mamlakatlarda iqtisodiy o'sish sur'atlari nisbatan past bo'lishi mumkin, chunki resurs daromadlari boshqa sektorlar raqobatbardoshligini pasaytiradi va hukumatlar islohotlarga kamroq moyil bo'ladi.

GDP per capita yoki aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ba'zi tadqiqotlar [2] shuni ko'rsatadiki, yuqori daromadli davlatlar resurs rentasini barqaror iqtisodiy rivojlanishga yo'naltirishga ko'proq qodir. Shu bilan birga, kam daromadli yoki rivojlanayotgan davlatlarda resurslar ko'pincha budjet defitsitini qoplash yoki qisqa muddatli ehtiyojlarga yo'naltiriladi, bu esa uzoq muddatli o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatadi.



So'nggi yillarda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining tabiiy resurslarga bo'lgan tayanishni kamaytirishdagi o'rni ham keng tahlil qilinmoqda. Chel & Kaushik [3] qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalarini rivojlantirish nafaqat ekologik muammolarni kamaytirishini, balki iqtisodiy diversifikatsiya orqali tabiiy resurslarga qaramlikni pasaytirishini ta'kidlaydi. Sovacool [4] esa qayta tiklanuvchi energiya va resurs rentasi o'rtasidagi bog'liqlikni empiric asosda o'rganib, bu turdagi energiyaning salohiyatli ijobiy ta'sirlarini ko'rsatgan.

Hukumat samaradorligi ham resurslar samarali boshqarilishi va ularning iqtisodiy ta'sirini belgilovchi muhim institutsional omil hisoblanadi. Kaufmann va Kraay [5] tomonidan ishlab chiqilgan World Governance Indicators (WGI) tizimi orqali davlat boshqaruvining turli jihatlarini, jumladan, hukumat samaradorligi (government effectiveness), korrupsiyaga qarshi kurashish, qonun ustuvorligi kabi indikatorlar baholanadi. Mehlum [6] va Robinson [7] o'z tadqiqotlarida shuni aniqlashdiki, faqat kuchli institutlarga ega mamlakatlarga tabiiy resurslardan uzoq muddatli foyda olishi mumkin. Aks holda, resurs rentasi korrupsiya va siyosiy beqarorlikni kuchaytirishi ehtimoli ortadi [8], [9].

Mazkur adabiyotlar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, tabiiy resurslardan olinadigan rentaga turli omillar – iqtisodiy daromad darajasi, energiya ishlab chiqarishning tarkibi va davlat boshqaruvi sifati – kompleks ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston kontekstida ushbu omillarning o'zaro ta'sirini empirik jihatdan o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham egadir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda O'zbekiston iqtisodiyotida tabiiy resurslardan olinadigan rentaning YaIMga nisbatan ulushiga ta'sir etuvchi omillar empirik jihatdan tahlil qilindi. Bunda asosiy bog'liq o'zgaruvchi sifatida "Tabiiy resurslar rentasi (YaIMga nisbatan foizda)" qabul qilindi. Mustaqil o'zgaruvchilar sifatida esa quyidagilar tanlandi:

Aholi jon boshiga YaIM (USD, doimiy 2015 yil) – iqtisodiy rivojlanish darajasining asosiy ko'rsatkichi;
Hukumat samaradorligi – davlat boshqaruvi sifatining indekslangan ko'rsatkichi (foiz sifatida ifodalangan);

Qayta tiklanadigan manbalardan elektr energiyasi ishlab chiqarish (kVt/soat) – ekologik toza energiya ishlab chiqarish darajasi.

3.1 Ma'lumotlar manbai

Tahlil uchun 2002–2021 yillar oralig'idagi kvartal ko'rinishidagi ma'lumotlar foydalanildi. Barcha ma'lumotlar Jahon bankining bazalaridan olindi. Ushbu manbalar ishonchli va xalqaro miqyosda qabul qilingan statistik mezonlarga mos keladi.

3.2 Model spetsifikatsiyasi

Tadqiqot doirasida quyidagi ko'p omilli chiziqli regressiya modeli baholandi:

(1)

bu yerda:

tabiiy_resurs – tabiiy resurslarning YaIMga nisbatan ulushi (foizda),

hukumat – hukumat samaradorligi ko'rsatkichi,

YaIM_jon_boshiga – aholi jon boshiga YaIM,

elektr – qayta tiklanuvchi manbalardan elektr ishlab chiqarish,

ε – xatolik,

t – vaqt.

Model OLS (Oddiy Eng Kichik Kvadratlar) usuli yordamida baholandi. Baholash Stata dasturi orqali amalga oshirildi.

3.3 Diagnostik testlar

Regressiya natijalarining ishonchligini ta'minlash maqsadida quyidagi diagnostik tekshiruvlar o'tkazildi:

Shapiro-Wilk testi yordamida qoldiq xatoliklarning normal taqsimlanganligi tekshirildi;

Multikolinearlik ehtimoli korrelyatsion matritsa va VIF ko'rsatkichlari orqali nazorat qilindi;

Heteroskedastiklik mavjudligini aniqlash uchun Breusch-Pagan testi o'tkazildi (natijalar natija bo'limida muhokama qilinadi).

3.4 Chegaraviy holatlar

Model bo'yicha 80 ta kuzatuv (yil) mavjud bo'lib, uchta mustaqil o'zgaruvchiga ega. Natijalarga ko'ra, modelning umumiy izohlayotgan dispersiya darajasi $R^2 = 0.4878$ (ya'ni 48.78%) bo'lib, bu modelning o'rtacha darajada izohlayotganligini bildiradi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Quyidagi juftlik scatterplot grafikasi tadqiqotda ishtirok etgan o'zgaruvchilar: tabiiy resurslardan olinadigan renta (YaIMga nisbatan foizda), hukumat samaradorligi, aholi jon boshiga YaIM (doimiy 2015 AQSH dollarida) hamda qayta tiklanadigan manbalardan (gidroenergetikadan tashqari) ishlab chiqarilgan elektr energiyasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni vizual tahlil qilish imkonini beradi.


Grafikdagi juftlik chiziqlari har bir o'zgaruvchining boshqalar bilan qanday chiziqli yoki nochiziqli bog'liqlikka ega ekanini ko'rsatadi. Tahlil natijalariga ko'ra:

Tabiiy resurs rentasi va aholi jon boshiga YaIM o'rtasida aniq salbiy chiziqli bog'liqlik mavjud. Bu shuni anglatadiki, iqtisodiy o'sish darajasi oshgan sari tabiiy resurslardan olinadigan rentaning YaIMdagi ulushi kamayib bormoqda. Bu esa resurslarga tayanmagan iqtisodiy rivojlanish modelining mavjudligini ko'rsatadi.

Tabiiy resurs rentasi va hukumat samaradorligi o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjudligi kuzatildi. Grafikda hukumat samaradorligi oshgan sari tabiiy resurs rentasi ham ortganini ko'rish mumkin. Bu holat samarali boshqaruv tizimlari resurslar ekspluatatsiyasini tartibga solib, undan ko'proq daromad olish imkonini berishini anglatadi.

Tabiiy resurs rentasi va qayta tiklanadigan elektr energiyasi ishlab chiqarish o'rtasidagi bog'liqlik ham ijobiy bo'lib, ushbu energiya manbalarining kengayishi tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatganini bildiradi. Shuningdek, bu natija yashil energetikaga o'tish jarayonining iqtisodiy foydasini ko'rsatadi.

Aholi jon boshiga YaIM va elektr ishlab chiqarish o'rtasida esa murakkab, chiziqli bo'lmagan munosabatlar mavjud bo'lib, bu rivojlanish darajasiga qarab elektr energiyasi iste'moli va ishlab chiqarilishi o'rtasidagi boq'liqlikning o'zgarishini aks ettiradi.



1-rasm. Juftlik scatterplotlar matritsasi


Umuman olganda, grafik tahlil natijalari regressiya modelidan olingan empirik xulosalarni vizual tarzda tasdiqlaydi. Bu bog'liqliklar O'zbekistonda tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligiga ta'sir etuvchi muhim iqtisodiy va institutsional omillar mavjudligini ko'rsatadi.

Mazkur "Sixplot" grafiklar to'plami tabiiy_resurs o'zgaruvchisining statistik xususiyatlarini har tomonlama ko'rsatib beradi:(2-rasm)

1. Sequence plot (Vaqt ketma-ketlik grafigi): Ushbu grafikda tabiiy resurslardan olingan rentaning kuzatuvlar bo'yicha o'zgarishi tasvirlangan. Yashil chiziq orqali o'rta qiymat (trend) pasayish tendensiyasini namoyon qilmoqda. Bu esa vaqt davomida tabiiy resurslardan olinadigan daromad kamayish tendensiyasiga ega ekanligini ko'rsatadi.

2. Residuals vs. Fitted plot (Qoldiq va bashorat qilingan qiymatlar grafiqi): Bu grafik regressiya modelidagi qoldiqlarning teng tarqalganligini ko'rsatadi. Qoldiqlar taxminiy simmetrik va $\pm 2\sigma$ oraliqda joylashgan bo'lib, bu modelning homoskedastiklik (barqaror dispersiya) shartini qanoatlantirishini bildiradi.

Sixplot for tabiiy_resurs



data set:

2-rasm. Tabiiy resurs rentasi sixploti

3. Boxplot (Quti grafiqi): Tabiiy_resurs o'zgaruvchisining markaziy tendensiyasi va tarqalishi ko'rsatilgan. Median qiymat qutining o'rtasida joylashgan bo'lib, keskin chiqindilar (outliers) mavjud emas. Bu esa ma'lumotlar taqsimotining me'yoriy ekanligini anglatadi.

4. First Difference plot (Birinchi farq grafiqi): Bu grafik tabiiy resurs qiymatlarining ketma-ket farqlarini ko'rsatadi. Harakatlanuvchi o'rtacha bo'yicha stabil bo'lmagan davrlar mavjudligi modelda vaqt ketma-ketlik strukturasi borligini bildiradi. Bu holat vaqtga bog'liq o'zgaruvchilik ehtimolini ko'rsatadi.

5. Histogram (Gistogramma): Tabiiy_resurs o'zgaruvchisining taqsimoti taxminan normalga yaqin bo'lib, simmetrik shaklga ega. Eng ko'p uchraydigan qiymatlar 13–20 oralig'ida joylashgan.

6. Normal quantile plot (QQ-plot): Ma'lumotlar nazariy normal taqsimot chizig'iga yaqin joylashgan, bu esa tabiiy_resurs o'zgaruvchisining normal taqsimotga yaqinligini ko'rsatadi. Ushbu natija regressiya modelida normal qoldiqlar shartini tasdiqlaydi.

Ushbu diagnostik grafiklar to'plamidan olingan vizual tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, tabiiy resurslardan olinadigan renta o'zgaruvchisi: vaqt bo'yicha pasayuvchi trendga ega, normal taqsimotga yaqin, regressiya modelida asosiy taxminlar (normalik, homoskedastiklik) bajarilgan.

Bu esa olib borilgan empirik tahlilning ishonchliligini oshiradi va model natijalariga tayanib aniq siyosiy va iqtisodiy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

1-jadval. Chiziqli regressiya

tabiiy_resurs	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf	Interval]	Sig
hukumat	.261	.108	2.42	.018	.046	.476	**
YalM_jon_boshiga	-.007	.002	-4.71	0	-.011	-.004	***
elektr	0	0	4.13	0	0	0	***
Constant	26.618	2.243	11.87	0	22.152	31.085	***
Mean dependent var	16.715		SD dependent var		6.204		
R-squared	0.488		Number of obs		80		



F-test	24.127	Prob > F	0.000		
Akaike crit. (AIC)	470.528	Bayesian crit. (BIC)	477.674		
*** p<.01, ** p<.05, * p<.1					

O'tkazilgan ko'p omilli regressiya tahlili natijalariga ko'ra, hukumat xarajatlari, aholi jon boshiga YaIM hamda elektr energiyasi iste'molining tabiiy resurslardan olinadigan rentaga ta'siri baholandi. Model umumiy ko'rinishda statistik jihatdan ahamiyatli bo'lib, $(F(3,76) = 24.13, p < 0.001)$, R-kvadrat qiymati 0.488 ga teng. Bu model tabiiy resurslardan olinadigan rentaning 48.8 foiz variatsiyasini tushuntira olishini bildiradi.

Hukumat xarajatlari o'zgaruvchisi tabiiy resurslardan olinadigan rentaga ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli ta'sir ko'rsatmoqda ($\beta = 0.261, p = 0.018$). Bu natija shuni ko'rsatadiki, davlatning iqtisodiy faoliyatda ishtiroki ortgani sari tabiiy resurslardan olinadigan daromad ulushi ham oshmoqda. Bu holat davlat investitsiyalarining resurslarni ekspluatatsiya qilish yoki ularni boshqarishdagi faolligini aks ettirishi mumkin.

Aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot (YaIM) esa tabiiy resurs rentasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda ($\beta = -0.007, p < 0.001$). YaIM darajasining ortishi resurslar rentasining YaIMdagi ulushini kamaytirayotganini ko'rsatadi. Bu esa iqtisodiy taraqqiyot ortgani sari resurslarga tayanish kamayishi mumkinligini anglatadi — bu iqtisodiy diversifikatsiya jarayoni bilan izohlanadi.

Elektr energiyasi iste'moli ko'rsatkichi esa tabiiy resurslardan olinadigan rentaga ijobiy va statistik jihatdan yuqori darajada ahamiyatli ta'sir ko'rsatmoqda ($\beta \approx 1.19e-09, p < 0.001$). Bu energiya iste'molining ortishi bilan resurslardan foydalanish hajmi ham ortayotganini bildiradi. Bu bog'liqlik energetika sektorining resurslarga tayanishini tasdiqlaydi.

Doimiy (constant) qiymati 26.618 ($p < 0.001$) bo'lib, bu boshqa omillar nol bo'lgan holatda tabiiy resurslardan olinadigan rentaning o'rtacha darajasini bildiradi.

Ushbu tadqiqotda O'zbekistonda tabiiy resurslardan olingan umumiy renta (YaIMga nisbatan foizda) ko'rsatkichiga ta'sir etuvchi omillar sifatida aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot (doimiy 2015 AQSH dollari), hukumat samaradorligi va qayta tiklanadigan manbalardan (gidroenergetikadan tashqari) elektr energiyasi ishlab chiqarish miqdori tanlab olindi. O'tkazilgan chiziqli regressiya tahlili asosida ushbu omillarning har biri tabiiy resurslardan foydalanish darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

2-jadval. O'zgaruvchan inflyatsiya omili

	VIF	1/VIF
YaIM jon boshiga	4.418	.226
hukumat	4.218	.237
elektr	1.109	.902
Mean VIF	3.248	.

Har uchala mustaqil o'zgaruvchining VIF qiymati 5 dan past bo'lib, bu multikolinearlikning kuchsiz yoki ahamiyatsiz darajada ekanini ko'rsatadi. Ayniqsa, elektr o'zgaruvchisi uchun VIF 1.109 bo'lib, bu deyarli hech qanday multikolinearlik yo'qligini bildiradi. Hukumat va jon boshiga YaIM o'rtasida bir oz bog'liqlik bor, ammo u kritik darajaga yetmagan ($VIF \approx 4.2$).

Modelda qoldiqlar dispersiyasining o'zgarmas (homoskedastik) bo'lishi regressiya tahlilining asosiy farazlaridan biridir. Ushbu farazni tekshirish uchun Breusch–Pagan/Cook–Weisberg testi qo'llanildi.

Nol gipoteza (H_0): Qoldiqlarda dispersiya konstantadir (heteroskedastiklik yo'q).

Muqobil gipoteza (H_1): Qoldiq dispersiyasi o'zgaruvchan (heteroskedastiklik mavjud).

Test natijalariga ko'ra:

$\text{Chi}^2(1) = 4.12,$

$p > \text{chi}^2 = 0.1224.$

Bu p-qiymat 0.05 dan katta bo'lgani uchun, nol gipotezani rad etish uchun asos yo'q. Demak, modelda heteroskedastiklik muammosi kuzatilmadi va qoldiqlarning dispersiyasi o'zgarmas deb qabul qilinadi.

3-jadval. Shapiro "Wilk W testi natijalari

Variable	Obs	W	V	z	Prob>z
residuals	80	0.965	2.374	1.895	0.229



Quyidagi Shapiro-Wilk test natijalari ma'lumotlarni normal taqsimotga ega ekanligini aniqlash maqsadida qo'llanilgan. Test natijalari quyidagicha:

O'zgaruvchi: residuallar
Kuzatuvlar soni (Obs): 80
W statistikasi: 0.965
V: 2.374
z: 1.895
p-qiyamat (Prob>z): 0.229

Testning nol gipotezasi (H_0) shuki, qoldiqlar normal taqsimotga ega. p-qiyamat 0.229 bo'lganligi ($0.05 > 0.229$ emas) sababli, nol gipotezani rad etish uchun yetarli asos yo'q. Demak, qoldiqlar normal taqsimotga mos keladi deb qabul qilinadi.

Ushbu natija regressiya modelining asosiy farazlaridan biri – qoldiqlarning normal taqsimotga ega ekanligini tasdiqlaydi va keyingi tahlillar uchun ishonchli hisoblanadi.

1. Muhokama

Regressiya natijalariga ko'ra, aholi jon boshiga YAIM tabiiy resurs rentasi bilan salbiy bog'liq bo'lib, ushbu o'zgaruvchining koeffitsienti -0.007 ($p < 0.01$) ni tashkil etdi. Bu shuni anglatadiki, iqtisodiy rivojlanish darajasi ortishi tabiiy resurslarga bo'lgan nisbiy ehtiyojning kamayishiga olib keladi. Mazkur natija resurslar intensiv iqtisodiy modeldan innovatsion va xizmatlar sohasiga yo'naltirilgan modelga o'tish jarayonini ko'rsatadi.

Hukumat samaradorligi esa tabiiy resurslardan tushadigan rentani ijobiy ta'sirlashi aniqlandi (koeffitsient = 0.261 ; $p < 0.05$). Bu natija samarali boshqaruv sharoitida resurslar boshqaruvi yaxshilanib, ulardan olinadigan iqtisodiy foyda oshishini bildiradi. Hukumat institutsional salohiyatining yuqoriligi resurslarni samarali taqsimlash va ularning iqtisodiy qiymatini oshirishda muhim rol o'ynashi mumkin.

Shuningdek, qayta tiklanadigan manbalardan elektr energiyasi ishlab chiqarish miqdori ham tabiiy resurs rentasi bilan musbat bog'langan (koeffitsient ≈ 0 ; $p < 0.01$). Bu holat, qayta tiklanadigan energiya manbalari rivojlanishiga qaramay, resurslarga bog'liq infratuzilmalarning kengayishi yoki resurs sektoriga qo'shimcha yondashuvlar tufayli rentaning saqlanib qolishini anglatishi mumkin. Shu bilan birga, bu natijalar mamlakatda barqaror energiya siyosatining tabiiy resurslardan foydalanish modeliga bevosita ta'sirini aks ettiradi.

Modelning R-kvadrati 0.488 bo'lib, bu tanlangan mustaqil o'zgaruvchilar tabiiy resurs rentasidagi variatsiyaning taxminan 49 foizini tushuntira olishini bildiradi. Bu iqtisodiy modellashtirishda maqbul natijadir. VIF ko'rsatkichlari ham multikollinearlik mavjud emasligini ko'rsatdi, bu esa modelning statistik ishonchligini tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Umuman olganda, natijalar O'zbekistonda tabiiy resurslardan foydalanish iqtisodiy, institutsional va texnologik omillarga sezilarli darajada bog'liqligini ko'rsatmoqda. Kelgusida ushbu omillarni inobatga olgan holda resurslar siyosatini takomillashtirish, iqtisodiyotning barqaror tarmoqlariga o'tishni rag'batlantirish va energiya manbalarini diversifikatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu tadqiqot O'zbekiston tog'-kon sanoatida tabiiy resurslar rentasiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlashga qaratildi. Buning uchun asosiy bog'liq o'zgaruvchi sifatida "Tabiiy resurslarning umumiy rentasi (YaIMga nisbatan foizda)" tanlandi, mustaqil o'zgaruvchilar esa "Aholi jon boshiga YAIM (doimiy 2015 AQSH dollarida)", "Hukumat samaradorligi" va "Qayta tiklanadigan manbalardan (gidroenergetikadan tashqari) elektr energiyasi ishlab chiqarish" ko'rsatkichlaridan iborat bo'ldi.

O'tkazilgan chiziqli regressiya tahlili natijalari shuni ko'rsatdiki:

Hukumat samaradorligi tabiiy resurslar rentasiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda ($p < 0.05$). Bu davlat boshqaruvi va tartibga solish mexanizmlari resurslarni samaraliroq boshqarishga olib kelishini anglatadi.

Aholi jon boshiga YAIM ko'rsatkichi salbiy va statistik jihatdan sezilarli ta'sirga ega ($p < 0.01$). Bu iqtisodiy o'sish resurslarga tayanish darajasining kamayishiga olib kelayotganidan dalolat beradi.

Qayta tiklanadigan energiya ishlab chiqarish ko'rsatkichi ijobiy va yuqori ahamiyatga ega ($p < 0.01$), ya'ni energiya manbalarining diversifikatsiyasi resurs rentasini oshirayotgan bo'lishi mumkin.

Shuningdek, modelga nisbatan bir qator diagnostik testlar o'tkazildi:

Shapiro–Wilk testi model qoldiqlarining normal taqsimlanganligini ko'rsatdi ($p = 0.229$).

Breusch–Pagan testi qoldiqlar dispersiyasining barqarorligini, ya'ni heteroskedastiklik mavjud emasligini isbotladi ($p = 0.1224$).

VIF tahlili esa mustaqil o'zgaruvchilar o'rtasida kuchli multikollinearlik yo'qligini tasdiqladi ($VIF < 5$).

Ushbu natijalar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Tog'-kon sanoati sohasida resurslardan olinadigan rentani oshirishda hukumat samaradorligini yanada kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Bu maqsadda ochiqlik, korrupsiyaga qarshi kurash va samarali boshqaruv mexanizmlarini joriy etish zarur.



2. Iqtisodiy o'sishni diversifikatsiyalash orqali resurslarga qaramlikni kamaytirish ijobiy natija bermoqda. Bu yo'nalishda yuqori texnologiyali tarmoqlarga investitsiyalarni ko'paytirish maqsadga muvofiqdir.

3. Qayta tiklanadigan energiya manbalarini kengaytirish, ayniqsa quyosh va shamol energetikasini rivojlantirish, resurslar rentasini oshirish bilan birga ekologik barqarorlikni ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari O'zbekiston tabiiy resurslarini samarali boshqarish, iqtisodiy siyosatda resurslarga qaramlikni kamaytirish va barqaror rivojlanishga erishish uchun muhim amaliy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Keyingi bosqichda tahlil makro va mintaqaviy darajada kengaytirilsa, hamda boshqa o'zgaruvchilar (masalan, xorijiy investitsiyalar, tashqi savdo hajmi, texnologik taraqqiyot) ham inobatga olinsa, yanada mukammal va chuqurroq tahlilga erishish mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Auty, R. M. (2001). Resource abundance and economic development. Oxford University Press.
2. Barma, N. H., Kaiser, K., Minh Le, T., & Vinuela, L. (2012). Rents to riches? The political economy of natural resource-led development. World Bank Publications. <https://doi.org/10.1596/978-0-8213-8480-0>
3. Chel, A., & Kaushik, G. (2011). Renewable energy technologies for sustainable development of energy efficient building. *Renewable and Sustainable Energy Reviews*, 15(4), 643–654. <https://doi.org/10.1016/j.rser.2010.07.015>
4. Kaufmann, D., & Kraay, A. (2002). Growth without governance. *Economia*, 3(1), 169–229. <https://doi.org/10.2139/ssrn.316500>
5. Sovacool, B. K. (2009). The importance of comprehensiveness in renewable electricity and energy-efficiency policy. *Energy Policy*, 37(4), 1529–1541. <https://doi.org/10.1016/j.enpol.2008.12.016>
6. Mehlum, H., Moene, K., & Torvik, R. (2006). Institutions and the resource curse. *The Economic Journal*, 116(508), 1–20. <https://doi.org/10.1111/j.1468-0297.2006.01045.x>
7. Robinson, J. A., Torvik, R., & Verdier, T. (2006). Political foundations of the resource curse. *Journal of Development Economics*, 79(2), 447–468. <https://doi.org/10.1016/j.jdeveco.2006.01.008>
8. Sachs, J. D., & Warner, A. M. (1995). Natural resource abundance and economic growth. NBER Working Paper No. 5398. National Bureau of Economic Research. <https://doi.org/10.3386/w5398>
9. Van der Ploeg, F. (2011). Natural resources: Curse or blessing? *Journal of Economic Literature*, 49(2), 366–420. <https://doi.org/10.1257/jel.49.2.366>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>